



“Qor qo’ynida lola” hikoyasida ayol taqdiridagi huquqsizlik muammosining ekspressionistik tahlili

**Burxanova Feruza
Abdurazzoqovna**

*Nizomiy nomidagi O’zMPU dotsenti,
Filologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori
(PhD) E-mail: burhonovaf8@gmail.com*

**Eshboltayeva Iroda
Abduvali qizi**

*Nizomiy nomidagi O’zbekiston
milliy pedagogika universiteti
Filologiya fakulteti “O’zbek tili va adabiyoti
yo’nalishi 1-bosqich talabasi.
E-mail: irodaeshboltayeva@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqola jadidchilik davrining eng buyuk namoyandalaridan biri bo’lmish Abdulhamid Cho’lponning XX asrdagi ijtimoiy muammolardan biri bo’lgan ayollar huquqsizligiga bag’ishlangan “Qor qo’ynida lola” asaridagi ekspressionizm tahliliga bag’ishlanadi. Shuningdek, mazkur maqolada yozuvchining o’sha davr jadidiy g’oyasini mahorat bilan aks ettirganligi ham tahlil qilingan va o’rganilgan, bu esa Cho’lpon asarlaridagi g’oyalarni chuqurroq tushinishimiz va anglashimizga yordam beradi.

Kalit so’zlar: Abdulhamid Cho’lpon, “Qor qo’ynida lola”, ekspressionistik tahlil, huquqsizlik muammolari, ichki kechinmalar.

Аннотация. Три статьи посвящены анализу экспрессионизма в произведении одного из крупнейших представителей джадидского периода Абдулхамида Чолпона «Лола в снегу», посвященном социальным проблемам XX века, бесправию женщин. В статье также анализируется и изучается мастерское отражение писателем джадидской идеи того периода, что помогает глубже понять и осмыслить идеи, заложенные в произведениях Чолпона.

Ключевые слова: Абдулхамид Чулпон, «Тюльпан на снегу», экспрессионистский анализ, проблемы несправедливости, внутренние переживания.

Annotation. Three articles are devoted to the analysis of expressionism in the work of Abdulhamid Cholpon, one of the greatest representatives of the Jadid period, "Lola in the Snow", dedicated to the social problems of the 20th century, the lack of rights for women. This article also analyzes and studies the writer's skillful reflection of the Jadid idea of that period, which helps us to understand and comprehend the ideas in Cholpon's works more deeply.

Keywords: Abdulhamid Chulpon, "Tulip in the Snow", expressionist analysis, problems of injustice, internal experiences.

O'zbek xalqining zabardast yozuvchilaridan, hamda jadidchilik namoyondalari qatoridan qo'zg'almas o'rin egallagan yozuvchimiz Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon 1897-yilda Andijonning Qatortarak mahallasida savdogar oilasida dunyoga kelgan. Otasi Sulaymonqul Mulla Muhammad Yunus o'g'li (1874-1929) dastlab dehqonchilik, so'ngra bazzozlik bilan shug'ullangan. Taniqli jurnalist va yozuvchi Mo'minjon Muhammadjonov "Turmush urinishlari" kitobida qayd etishicha, Cho'lponning otasi o'z davrining ziyoli kishilaridan biri bo'lish bilan bir qatorda, yozuvchilik sohasiga ham ko'p e'tibor qaratgan. U "Rasvo" taxallusi bilan ijod qilib, ko'plab she'rlar yozish bilan birga devon ham yozgan. Cho'lponni ham boshqa yozuvchilar singari deyarli quyoshli kunlarni ko'rmay yashadi desak mubolag'a bo'lmaydi. Biz bilamizki, XIX asrning oxirlarida vujudga kelgan va XX asrga kelib keng tarqalgan jadidchilik oqimining asosiy maqsadi taraqqiyot uchun chin ma'noda kurashish, shuningdek, turkiy tillarni boyitish, badiiy til bilan aytganda, o'sha davr xalqini uyg'otish kabi g'oyalarni insonlar ongiga singdirish edi. Bu uchun ko'plab jadidlar, xususan, Abdurauf Fitrat, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdulhamid Cho'lpon kabi namoyandalar ko'plab jasorat ko'rsatadilar va ular o'zlarini jadid deb ataydilar. Shuningdek, ushbu namoyandalardan biri bo'lmish Abdulhamid Cho'lpon haqida ham ko'plab ma'lumotlar mavjud. *"Jadidchilik XIX asr oxiri – XX asr boshida Turkiston, Kavkaz, Qrim, Tatariston hayotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy – siyosiy, ma'rifiy harakatdir. «Jadid» arabcha so'z bo'lib, «yangi» degan ma'noni anglatadi. Jadidchilik dastlab XIX asrning 80 – yillarida Qrimda Ismoilbek Gasprinskiy (1851 – 1914) rahbarligida qrim tatarlari o'rtasida vujudga keldi. U 1884 yil martda Qrimdagi Boqchasaroy shahrida jadid maktabini ochadi va u «usuli savtiya tadrijiya» («rivojlanuvchi tovush usuli») maktabi bo'lgan. Yangicha usul – «usuli jadid» – savtiya (tovush) usuli bilan 12 bola o'qitilib, 40 kunda savodini chiqarilgan.*"¹

*Jadidchilik harakati, shu vaqtgacha Islom dunyosida sira ham ko'rinmagan ilg'or va tezkor o'qitish "Savtiya" (tovush) usuliga asoslangan jadid maktablari tashkil topishidan boshlandi. Bu maktablarda bolalar bir yilda savod chiqarib, mukammal o'qish va yozishni o'zlashtiradi. Buning uchun esa qadim an'anaviy musulmon maktablarida 5-6 yil o'qish kerak bo'lar edi. Aytish mumkinki, "Savtiya" usulidagi jadid maktabi Vatanimiz tarixidagi buyuk kashfiyotlar silsilasini boyitdi.*²

"Turkiston milliy shoiri, Andijonda jadidchilikka asos solgan Cho'lpon (1898-1938) shaharda «Turon kutubxonasi» va uning yonida katta bir qiroatxonani tashkil qilgan."³

Cho'lpon o'z asarlarida o'sha davr ijtimoiy hayotini mahorat bilan, badiiy tilda namoyon etadi. U o'z asarlari xalq dardini tashqi tomon bilangina emas, uning ichki his tuyg'ulari bilan ham, qalb tu- tubiga yetib boradigan darajada shoirona usul bilan yoritib beradi. U, shuningdek, o'sha davrning asosiy muammolaridan biri bo'lgan

¹ <https://api.ziyounet.uz/uploads/books/652/5b0251e6d4b67.pdf>

² Ўзбекистон тарихи. Р.Шамсутдинов, Х.Мўминов. "Анджон". 2011, - Б. 306 - 308

³ <https://cyberleninka.ru/article/n/turkistonda-jadidchilik-harakati-va-ularning-faoliyati/viewer>

ayollar huquqsizligini badiiy ohang bilan, yosh qizlar timsolida qalamga oladi. Masalan, Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lponning "Kecha va kunduz" romani yaratilganiga 80 yildan ko'p vaqt o'tgan bo'lsa-da, u hamon qo'ldan qo'lga o'tib kelmoqda. Kitobda o'zbeklarga xos andisha, himmat, iffat va soddalik kabi fazilatlar bilan birga ayollardagi, yosh qizlardagi inson qadrining mutlaqo yo'q bo'lib ketayotganligi, shuningdek, xotinbozlik va mol-mulk orttitirish yo'lida hech nimadan tap tortmaydigan, bu yo'lda hatto o'z pushti kamaridan bo'lgan yosh qizlarni ham ayamaydigan otalar obrazlari badiiy tilda yoritib beriladi. Cho'lponning ijodida aynan shu asariga o'xshash yana bir qimmatli asarini ko'rishimiz mumkin. Bu asar "Qor qo'ynida lola" deb nomlanadi. Ushbu asarda ham xuddi "Kecha va Kunduz" asari singari yosh qizchaning, ya'ni Sharofatning otasiga qarshi chiqolmasligi oqibatida, bolalikning, yoshlikning eng go'zal davrida o'zi xohlagandek yashay olmaganligi hikoya qilinadi. Bu asarlarda bitta Sharofat (Qor qo'ynida lola) yoki faqat Zebi (Kecha va Kunduz) hayoti emas, butun bir o'zbek xalqi orasidagi Zebilar va Sharofatxonlar timsol qilib olingan. Bu yosh qizlar ayollar huquqsizligini namoyon etish uchun asosiy badiiy obraz qilib olinadi va ular qalbining tub-tubidagi qadrsizlik va ular fikrining tinglanmasligi, ularning hayot yo'lidagi qiyinchiliklardan charchagan qalbi ko'plab kitobxonlarni o'ziga jalb qilish bilan birga, qahramonlar qalbidagi kechinmalarni chin ma'noda his qilishga sabab bo'ladi. Aslini olganda bu asarlar shunchaki roman yoki kimlarningdur hayotidagi hikoyalar emas, balki o'sha davrdagi yosh qizlarning "ovoqsiz faryodi" ham deyishimiz mumkin. Ularning ichki his-tuyg'ularini biz bu asarni o'qish orqali his qilolamiz, bundan ham bevosita yozuvchining ijodi, uning obrazli fikrlash qobiliyatining nihoyatda kuchli ekanligini anglashimiz mumkin.

To'g'ri sizda ko'plab savol paydo bo'lishi mumkin, nega o'sha qizlar turmushga chiqayotgan insonlarini yoshi katta ekanligi-yu, ularga ko'ngil qo'ya olmasligini bila turib rozi bo'lishdi? Nega o'z otasiga yoki onasiga bu turmushga rozi emasligi, shuningdek, boshqa insonni yoqtirishi haqida bir marta bo'lsa ham qarshilik yoki o'z fikrini bildirmadi? Bu savolga bir tomondan ayollar huquqsizligi sabab bo'lgan, ular o'sha davrlarda deyarli tinglanmagan deya javob bersak, boshqa tomondan bu o'zbek qizlarida qadimdan saqlanib kelayotgan iffat va hayo deyishimiz mumkin. Chunki otanonani rozi qilish bu bizning, musulmonlarning ham qarz, ham farzimizdir. Shunga ko'ra ular otasiga ham, balki onasiga ham o'z qalbida tug'yon urayotgan gaplarini aytilmagan deyishimiz mumkin. Ular shu ikki sabab orqali taqdirga tan berishgan, ular faqat ich-ichidan o'zini qiynashgan va bu og'riqli ichki kechinmalarini hech kimga ayta olishmagan.

"Kecha va kunduz" asrida biz o'qib tushunganimizdek, Zebi ancha tazyiq ostida turardi, shuningdek, otasi Razzoq So'fining "nomahramlarga ovozini eshittirsa rozi emasman"⁴ – deya aytgan gapi, uning Zebini qanchalik qattiq nazorat qilishini ochib bergan edi. "Qor qo'ynida lola" asrida esa yozuvchi asar ekspozitsiyasini yosh qizaloqlarning koptok o'ynashi bilan boshlaydi, bu ham bevosita qizaloqning hali juda yosh ekanligini, biz kitobxonlarning chuqurroq anglab yetishimiz uchun katta turtki bo'la oladi. Sharofatxonning qalbi, ko'ngli juda yosh edi. Lekin buni na oatasi va na

⁴ Cho'lpon. Kecha va Kunduz. Toshkent.2000.19-bet

onasi tushundi. Biz uning Ichida tug'yon urgan qadrsizlik hissini faqatgina yozuvchining yuqori badiiy uslubi orqaligina tushina oldik.

Cho'lponning hikoyalari hajman juda kichik bo'lib, o'zbek xalqining biror jihatini ifodalagan. Ularda milliylik kuchli, til juda pishiq, obrazlilik, psixologizm ustuvor. Shunday hikoyalardan biri "Qor qo'ynida lola" asari bo'lib, yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, ayollarning huquqsizligi badiiy obrazlar orqali mahorat bilan aks ettirilgan. Asar ekspozitsiyasi yosh qizlarning beg'ubor o'yini bilan boshlansa, syujet tuguni kichkina qizaloq- Fazilatxonning yugurib kelib, Sharofatxonga sovchi kelganligi haqidagi xabarni opasiga aytishi bilan boshlanadi.

*-O'la qolsun, Tilla, menga kuyov emas, Sharofatxonga sovchi kelubdur!- dedi. Qizlar bir-biriga qarashib oldilar. Sharafotxon qip-qizil qizorib, turg'on yerida qotib qolg'on edi.*⁵

Shunday qilib, voqealar rivoji Sharofotxonni dadasining roziligi bilan o'zidan ancha katta bo'lgan Eshonga berishadi. Sharofatxonning bu taqdirini bevosita Zebi taqdiriga bog'lashimiz mumkin (Kecha va kunduz). Shunday qilib lolaning ustiga qor yog'di, aslini olganda esa bu qor bitta lolagina emas, ko'plab lolalar ustiga yoqqandi. Bunga sabab esa bir tomondan xalqning e'tiborsizligi deyilsa, boshqa tomondan avval bot-bot takrorlaganimizdek, ayollarning huquqsizligi, qadrsizligi edi. Samandar aka o'z manfaati uchun endigina 17 ga kirgan qiziga ham rahm qilmadi. Uning maqsadi esa eshonga yaxshiroq sovg'a berish-u, uning ko'ziga yaxshi ko'rinish edi. Lekin boshqa tomondan qarasak, Samandar aka ham buni xohlamagandi, ya'ni qizi hali ancha yoshligini ham bilardi va bu ayni shu gapdan anglashilgan edi;

Samandarboy bir yosh qizini, bir eshonni, boyagi nazr-niyoz masalasini, eng so'ng kimsan hazrat eshonning kuyovliklarini o'ylab turdi-da: - «Bitta qizimiz bo'lsa, hazrat eshonimizg'a tutdik, sadag'alari ketsun!» degil!⁶ - dedi.

Mening o'ylashimcha, bu fikr xatô edi, chunki, Sharofatxon ancha yosh edi, Nafaqat Sharofatxon balki shu davrda yashagan, ota-ona xohishi deb butun orzu-umidlaridan kechgandan, hayot deya atalmish doshqozonda qaynagan qizlar hali juda yosh edi. To'g'ri, bu zamon talabi edi, lekin nega o'zbek xalqi shu hayot, shu talab davom etishiga qo'yib berdi, nega bu katta gunohligini bilsalarda hech qaysi mard o'rta qiz chiqib bu ishlarni, bu udum-u, an'analarni to'xtatish haqida so'zlashmadi? Javob bitta o'sha vaqtlardagi xalq haligacha o'zligini anglab yetmagandi, ular xatto o'zlarining dushmani kimligi bilishmasdi. Ular o'z dushmanlari deb jadidlarni ayblashdi, ularnin hayotini badiiy tilda, badiiy obraz orqali xalq hayotini olib chiqishgani uchun ularni ayblashdi, chunki ular xalq xayotini yoritish orqali, o'sha davr mansabdor kimsalarni qoralardi. Meningcha, agar bizning o'zbek xalqimiz o'sha davrda o'z dushmani aslida kim ekanligini anglab yetishganda edi, balki Cho'lpondek, Abdulla Qodiriydek, Fitratdek yozuvchilarimizning yana ko'plab asarlaridan hozirgi yoshlar yanada bahramand bo'lar edik.

Endi yana o'z asarimizga qaytsak, biz yuqorida ta'kidlaganimizdek, Sharofatxonning hayoti (Qor qo'ynida lola) va Zebining hayoti (Kecha va Kunduz) deyarli bir-biri bilan uyg'unlikda yozilgandek, "kecha va Kunduz" asari mazmunini

⁵ <https://kutubxona.samduuf.uz/download/1213>

⁶ <https://kutubxona.samduuf.uz/download/1213>

haqiqiy badiiy bo'yoqdorlik oqali badiiy tilda keng tushunchalar orqali yoritib berilsa, "Qor qo'ynida lola" hikoyasi orqali esa yozuvchi, xalqona tilda deyarli bo'yoqlarsiz, sodda va tushunarli qilib yosh qizlar hayoti, his-tuyg'u, ichki kechinmalarini yoritib beradi. Bu asarni kitobxon bir marta o'qishni o'zidayoq Sharofatxon obrazida, xuddi o'zi yashayotgandek his qiladi. Chunki bu asar shunchalik xalqonaki, bu asarda siz hech qanaqa tushinarsiz termin va iboralarni ko'rmaysiz. Yozuvchi bitta gapi orqali ham o'quvchi qalbiga yetib bora oladigan hislarni bayon qilgan. Asarning sarlavhasini o'ziyoq sizni o'zgacha bir dunyoga olib ketadi, "Qor qo'ynida lola" nega yozuvchi aynan bu terminlarni sarlavha qilib oldi, bularning orasida qanaqa o'xshashlik bor? kabi savollar xayolinggizga kelishi tayin chunki bu asar haqiqatda muhokama qilishga arzigulik asardir.

Cho'lpon bu kabi hikoyalarda o'zbek xalqi xotin-qizlarining ayanchli taqdirini turli badiiy obrazlarda tadqiq etar ekan, har bir jamiyatning taraqqiyot darajasi, shu xalqning xotin-qizlarga bo'lgan munosabati bilan belgilanadi, degan go'yani o'z asarlarida ilgari surgan. Umuman, o'zbek xotin-qizlarining mustamlakachilik sharoitidagi taqdiri tasviri Cho'lpon she'riy ijodinining ham, kichik epik asarlarining ham, "Kecha va kunduz" romanining ham asosiy g'oyaviy yo'nalishini belgilab bergan.⁷

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, ushbu asarda ko'plab ma'no mazmun yashiringan, kompozitsion vositalardan biri bo'lgan sarlavha, agar biz mantiqiy yoki chuqur yondashadigan bo'lsak, asarning butun mazmunini ochib beradi. Yana shuni aytilish mumkinki, qor tagida qolgan lola hech qachon yashab ketolmaydi, qor tagida qoldimi u qachondir bir kun nobut bolishi tayin. Cho'lpon go'yoki qor tagida qolib ketayotgan lolalarni tashxis san'ati orqali jonlantirdi, lekin bir tomondan qaraganda, bu kabi hodisalar real(haqiqiy) hayotdan olingan holatlar edi. O'zbek xalqi xotin-qizlarining ayanchli taqdiri shu ikki yoshgina qizaloqlar, Sharofatxon va Zebi orqali yoritilgandi. Men o'qigan hikoya-yu, romanlarim orasida men eng ko'p o'ylantirgan asarlardan biri aynan shu asar bo'ldi. Ushbu asar badiiy tilda shunaqangi ajoyib yoritilganki, kitobni o'qib boshlashim bilan xayolimga "Kecha va kunduz" asaridagi Zebi keldi. U ham bir lola edi, lekin otasi Razzoq so'fi tomonidan qor qo'yniga tashlandi, xuddi o'n yetti yoshli Sharofatxon singari. Ushbu asardagi qor va lola ramzlari bir-biriga qarama-qarshi shaklda qo'llaniladi. Biz bilamizki, qor bu- sovuqlik inson qalbidagi alam-iztiroblarni, umidsizlik, xafagarchiliklarni va shuningdek, inson qalbidagi qayg'u va tanazzulni ifodalasa, lola bunga mutlaqo tazod qilib qo'llanadi. Chunki lola bu nafislik belgisi bo'lib, hayot va muhabbatning yuqori timsollarni ifodalaydi. Asarda qor va lolaning o'zaro aloqasi inson qalbidagi bir qancha hissiyotlarning simvolizatsiyasi hisoblanadi. Bu hislar o'sha davr ayollarining qalbidagi kuchli tus olganligi ham aynan shu jumlar orqali anglashiladi.

Xulosa qilib aytganda, Abdulhamid Cho'lpon o'z asarlari bilan XIX asrda o'zbek xalqining ayanchli hayotini badiiy obrazlar orqali, real(haqiqiy) hayotga murojaat qilgan holda o'z munosabatini bayon qiladi. Yozuvchi asar qahramonlarni o'z ichki his-tuyg'ulari bilan qoldirganda, bevosita biz kitobxonalar ham ularning

⁷ <https://ru.scribd.com/document/881094835/Abdulhamid-Cho-Lponning-Qor-Qo-Ynida-Lola-Hikoyasi-Haqida22>

holatini his qilmay qolmaymiz, buni esa yozuvchining betakror uslubi deyishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdulhamid Cho'lpon. Qor qo'ynida lola. Toshkent. 2024. B-14
2. Cho'lpon. Kecha va Kunduz. Toshkent. 2000. 19-bet
3. Ўзбекистон тарихи. Р.Шамсутдинов, Х.Мўминов. “Андижон”. 2011, - Б. 306 – 308
4. Abdulhamid Cho'lpon hayoti va ijodiga bag'ishlangan qo'llanma. Yoshlar ishlari agentligi
5. <https://api.ziyonet.uz/uploads/books/652/5b0251e6d4b67.pdf>
6. <https://cyberleninka.ru/article/n/turkistonda-jadidchilik-harakati-va-ularning-faoliyati/viewer>
7. <https://kutubxona.samduuf.uz/download/1213>
8. <https://ru.scribd.com/document/881094835/Abdulhamid-Cho-Lponning-Qor-Qo-Ynida-Lola-Hikoyasi-Haqida22>